



ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK QISSALARIDA MAJOZIY TASVIR MASALASI (ERKIN A'ZAMNING QISSALARI MISOLIDA)

Axmadiy Komila Shavkat qizi

Guliston davlat universiteti

Filologiya fakulteti Adabiyotshunoslik kafedrası (o'zbek adabiyoti)

2-bosqich 9-22-guruh magistranti.

anorboyevakomilxon@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 20th January 2024

Accepted: 26th January 2024

Online: 27th January 2024

KEY WORDS

Qissa, personaj, xarakter, qahramon, konflikt, yechim, ijtimoiy muhit, kinoya, innovatsion, kompozitsiya, esse, tendensiya.

ABSTRACT

Maqolada muallif, Erkin A'zamning qissalarida davr va inson muammolarining aks etishi yuzasidan kuzatishlar bayon etilgan. "Chapaklar va chapaklar mamlakati" qissasi qahramonlari, ularning ijtimoiy muhit bilan yuzaga kelgan konfliktli vaziyatlari, qahramonlarning ichki tuyg'ulari aksi misollar bilan ko'rsatilgan.

KIRISH

Istiqlol davri adabiyotshunosligining xalqaro maydondagi o'rni va milliy madaniy me'rosini tadqiq etish, qadriyatlarni anglash zarurati bugungi globallashuv jarayonida badiiy adabiyotning mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, badiiy asarlarning jahon adabiyoti rivojida munosib o'rnini asoslash, keyingi davr adabiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan ijodkorlar me'rosini o'rganishni taqazo etmoqda. Bugungi madaniy-ma'rifiy sohalaridagi amalga oshirilayotgan islohotlar va kechayotgan jarayonlar o'zbek adabiyotshunosligi oldiga ham qator yangi vazifalar qo'yimoqda. "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi". [1] Bu jarayonda muayyan xalq badiiy tafakkuri mahsulining insoniyat ma'naviy olamini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

O'zbek adabiyoti maydoniga o'tgan asrning 70-yillarida o'ziga xos qalami bilan kirib kelgan Erkin A'zam zamonaviy o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri hisoblanadi. E'tiborli jihati, yozuvchi o'z so'zini so'zlashda "erkin"ligi bilan ajralib turadi. Erkin A'zam kishilarda kuzatiladigan kechirilmas illatlarni goh qog'ozga o'rab satiristik ruhda bayon etsa, gohida hech narsani yashirishga urinmay o'tkir zaharxandalik-sarkazm bilan ifodalaydi. "Erkin A'zam badiiy olami" nomli ilmiy maqolalar va suhbatlar to'plamida adibga shunday ta'rif beriladi: "Yozuvchi nasrida kinoya, yengil kulgi, zaharxanda, qahqaha, piching, kesatiq, masxaraomuz, mazaxlovchi hazil qatlamlari, sarkazm, so'z o'yinlari, parodiya, paradoks, parodiyaviy obrazlilik, niqoblangan obrazlar kuzatiladi. Adibning so'zga, chinakam adabiyotga bo'lgan talabchanligini, inijligini, obrazli ifoda va o'tkir kinoya vositalarini



qo'llashiga qarab, biz uni zamonaviy o'zbek adabiyotining tamal toshini qo'ygan Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhorlarning munosib izdoshi, munosib shogirdi deya olamiz". Erkin A'zam qalamiga mansub asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, beixtiyor ularda davr va inson muammosi yetakchilik qilishini sezamiz. Insoniyatning qon-qoniga singib ketgan, undan hech ham ayrila olmaydigan illatlarni o'tkir kulgi, sarkazm orqali ifodalash uslubi aynan Erkin A'zam asarlarida yorqin namoyon bo'ladi. Jumladan, "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasida yumoristik ironiyadan foydalangan bo'lsa, "Guli-guli, "Chapaklar va chalpaklar mamlakati" qissalarida, kishilarga xos illatlarni tanqid qilish uchun kinoyaning o'tkir formasi-sarkazmni qo'llagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Har qanday badiiy asar ham o'z davrining xoh maishiy, xoh ijtimoiy, xoh siyosiy bo'lsin qandaydir muammolarini aks ettiradi. Chunki ijodkor borliqni o'z ko'zi bilan ko'rib, o'z dunyoqarashi, tafakkuri, bilim darajasi, tuyg'ulari, kayfiyatidan kelib chiqib asarini yozadi. Dunyo adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qaysi mavzuda yozilgan bo'lmasin, shuhrat topgan badiiy asarlar davr muammolarini yoritib berganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. O'zimizning adabiyotimizda ham shu holatga ko'zimiz tushadi. Masalan, "O'tkan kunlar" yoki bo'lmasam "Kecha va kunduz" romanlari misolida qaraydigan bo'lsak, har ikki asar ham o'z davrining dolzarb masalasini aks ettirishga xizmat qilgan. Balki shu sababdan ham haligacha kitob javonlaridagi o'rnini yo'qotmay kelayotgan bo'lsa ne ajab.

NATIJALAR

Erkin A'zam asarlarining aksariyatida davrimiz insonlari ijtimoiy muhit bilan konfliktda, davriy muammolar girdobida tasvirlangan. Adib yaratgan hikoyalarni, publitsistik asarlarini olamizmi barida yuqorida aytganimizdek holatlar tasvirlangan. "Chapaklar va chalpaklar mamlakati" qissasida ham katta ijtimoiy voqelik, siyosiy va ma'naviy inqirozlar qalamga olingan. Tadqiqotimiz obyekti sifatida olganimiz Erkin A'zam qissalarining ham akasariyati davr va inson muammolarini aks ettirgan: "Kitobga kirgan asarlarning hammasi ayni shu kunlarimiz, shu kundagi odamlarning – zamonadoshlarning qismati, dardi dunyosi, ularni qiynayotgan hayot, turmush muammolari ustida bahs etadi. Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tish davri zamondoshlar tabiatida, qarashlarida, qismatida, ruhiyatida yuz berayotgan evrilish, o'zgarishlar jamiki ziddiyatlari, musbat va manfiy tomonlari, dolg'alari va og'riqlari bilan ko'z oldingizda baralla gavalanadi". []

Erkin A'zam "Chapaklar va chalpaklar mamlakati" qissasida ham ironiyaning o'tkir formasi – sarkazmdan foydalangan. Tovarish Erkin va tovarish Baxtiyor ismli qahramonlar Chapaklar mamlakatiga delegatsiya sifatida yuboriladi. Adib qahramonlarining bu safari orqali qarsakbozlik, ko'z bo'yamachilik, laganbardorlik, shaxsga sig'inish kabi illatlarga mukkasidan ketgan aholining ayanchli ahvolini, davlatning haddan oshib ketgan qonunqoidalarini o'tkir zaharxandalik bilan ifodalaydi. Bu esa beixtiyor, o'quvchini yon-atrofidagi tuzumning tartib-qoidalariga nazar tashlashga undaydi. Qissa jamiyat a'zolarini gohida sergaklikka chaqirsa, gohida bu kabi ayanchli hollar bizda uchramasligi uchun shukronalikka chaqiradi. Asarning nomlanishiga to'xtaladigan bo'lsak, adib bu xususida shunday so'z yuritadi: "Chapak" — talaffuzi buzuq, qandaydir harfi tushib qolgan chala bir so'zdek tuyuladi menga. Asli, deylik, "chalpak" bo'lganmikan? Biroq bu boshqa tushuncha, ma'nosi boshqa. Chalpak — ba'zi viloyatlarimizda faqat ta'ziya marosimlarida pishiriladigan,



qozonda yoqqa qovurib olinadigan yupqagina xamir taom. Shundanmi, “Chalpageingni yeyin” degan qarg’ish ham bor—“o’l, o’lganingda isqotingdan tatib ko’ray” mazmunida. Harholda, bu ko’pam iliq-issiq ibora emas. “Urib chalpak qilib tashladi”, ya’ni — o’ligini cho’zib qo’ydi, yupqasini chiqarib yubordi; yoki: “Chalpakka o’rab tashlasang, it ham qaramaydi”. It ham qaramasa, demak, mutlaqo yaroqsiz, keraksiz bir nimarsa ekan-da. Xo’sh, chapakka burkab tashlasa-chi? Har qancha aziz matoh bo’lmasin, kaftlar orasida shapatilnaverib u ham yupqa tortib, to’zib, siyqalanib ketmaydimi? Keyin unga hatto it ham qaramay qo’ymaydimi? Umuman, shu ikki so’z bir negizdan emasmikan?..”. Guvohi bo’lganimizdek, Erkin A’zamning mamlakatni “Chapaklar va chalpaklar mamlakati” deb nomlashida ham sarkazmning yorqin namunasi aks etib turibdi. Ushbu asarning yozilishiga turtki bo’lgan sababni esa Erkin A’zamning bir intervyudagi nutqidan bilib olishimiz mumkin. Adib Fransiya, Rossiya, Eron, Shimoliy Quriya kabi ko’pgina davlatlarda ijodiy safarda bo’lgan. Xorijiy davlatlarga sayohat sizga va sizning ijodingiga qanday ta’sir o’tkazgan qabilidagi savolga Erkin A’zam shunday javob beradi: “Menga, ayniqsa, qattiq ta’sir qilgan mamlakatlardan boshlasam bo’ladimi? Eron bilan Shimoliy Quriya. Eron qandaydir qadimiy ruhi va bizning ko’zimiz o’rganmagan manzaralari bilan diqqatimni tortgan. “Tehrona qo’rquv yo’q” degan esse ham yozganman. Shimoliy Quriyaga kelsak “Chapaklar va chalpaklar”ni o’qigansiz. Boshqa nimayam deyin? O’sha o’n kunlik safar haqida shunday hajmdagi tag’in bir kitob yozish mumkin. Xudo u yerga qaytib borgulik qilmasin!”. Asarda juda kuchli ironiya bilan yozilgan bir necha parchalarni keltirib o’tsak: “Dohiy minbarga chiqib tarixiy ma’ruzasini boshlamaguncha chapak ham tinmadi, majlis raisiga o’xshab jami mezbonlar allanechuk some holatda ta’zimdan bosh ko’tarmay turdilar. Ehtiromning zo’rligini qarang!”. “Zotan, bu xil namoyishlar bizga begona emas — ommaviy chapakbozlik muhitida o’sib-ulg’ayganmiz. Ko’zlarimiz ko’nikib, quloqlarimiz toblana-toblana chiniqib ketgan. O’-o’, bir chapakbozliklarni ko’rdik, bir chapakbozliklarni ko’rdik, ta’rifiga so’z qayda! Bog’cha yoshidan boshlab chalganmiz chapakni. Goho shunday berilib ketardikki, majlis-marosimdan keyin kaftlarimiz bir necha kun lovillab yurardi. Buyam bir mehnat-da. Og’ir mehnat! Ayniqsa, minbardan chiqayotgan gaplar shunchaki havoga uchayotganini, hech qachon amalga oshmasligini sezib-bilib tursangiz! Ayniqsa, balandparvoz shior shaklida otilayotgan bu so’zlar ishonch-e’tiqodingizga zid bo’lsa, teskari bo’lsa-yu, o’zingizni samimiy, sadoqatli ko’rsatib, bor kuchingiz bilan kaftni kaftga urmoqqa mahkum etilsangiz! Og’ir, juda majburiy mehnat!”

Erkin A’zam mazkur satrlarda qalbidan kechayotgan achinish hissini, dilini o’rtayotgan qahrni alamli, achchiq so’zlar bilan kulgi ostiga oladi. “Otoyining tug’ilgan yili” asarida epigraf sifatida qo’llangan “Aytsam – o’ldururlar, aytmamam – o’lam” jumlasini bevosita Erkin A’zam badiiyatida tez-tez uchrovchi kinoya, piching, kesatq, sarkazm, so’z o’yinlari, niqoblangan obrazlar, zaharxanda, qahqaha, masxaromuz hazil qatlamlarining barchasi uchun birdek xos, nazarimda.

Qahramon o’z-o’zini so’roqqa tutadi. Lekin qilmishiga jo’yali javob topolmaydi. Inson ruhiyatining so’z bilan, aql-u tafakkur bilan izohlash qiyin bo’lgan sirli jumboqlari bor. Yozuvchi qahramonini ana shu jumboqlarga ro’baro’ qiladi.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlashimiz joizki, o’zbek badiiyatining sara sarkazmlari ifodalangan durdona asarlar sifatida Erkin A’zam ijodiyotini haqli ravishda tilga olamiz. Biz



bunga yuqorida keltirilgan qissalar misolida yana bir bor amin bo'lamiz. Chunki Erkin A'zam asarlarida shunchaki yengil kulgi uyg'otish asosiy maqsad qilib olinmaydi, har bir kinoya, ironiya ustiga qurilgan asar zamirida jamiyat a'zolarini, kishilarni ogohlikka chaqirish, o'zlariga sezilmas ayrim illatlarni fosh etish, xalqning ma'naviy-axloqiy, madaniy qiyofasini yuksaltirish, tinch-totuvlikni ta'minlash maqsadi yotadi. O'zining takrorlanmas asarlari orqali siz-u bizga uqtirmoqchi bo'lgan g'am-qayg'ular barobarida insoniy fazilatlarni, shuningdek, fuqarolik burchlarni anglay olishimiz biz – kitobxonlar zimmasidagi asosiy vazifadir.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohaza va tahlillarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Ijodiy jarayon mazmunni yorqini ifoda etishga mutanosib shakl axtarishdir. Badiiy asarning shakliy tomoni: uslub, janr, kompozitsiya, badiiy nutq, ritm singari unsurlarni qamrab oladi. Uning mazmuniy tomoni esa: mavzu, fabula, konflikt, xarakterlar va sharoit, badiiy g'oya, tendensiya kabi jihatlardan iborat.
2. Erkin A'zam uslubiga xos betakror belgilarni quyidagi o'nta omilni nazarda tutib belgilash maqsadga muvofiqdir:
 - 1) adib tug'ilib o'sgan oilaviy muhitga xos genetik omillar;
 - 2) kindik qoni tomgan geografik makon, ya'ni Buxoro tarixi va buguni uning qalbiga yaqin ekani;
 - 3) turli tahririyatlar, radio, televideniya va nashriyotlarda ishlagan kezlarida atrofni qurshagan ustozlari, do'stlari davrasida fikran ulg'ayishi;
 - 4) respublikamiz hamda jahonda kechgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jabhalardagi o'zgarishlarga bo'lgan munosabati;
 - 5) har bir tarixiy-adabiy davrga xos adabiy-estetik tafakkurdagi evrilishlar ta'siri;
 - 6) fikrlash tarzida milliy-adabiy va keng ma'noda, Sharq folklori va mumtoz adabiyot ruhi ustuvorligi, xalq hayotiga yaqinlik;
 - 7) qiyofasi o'zgargan va shiddat bilan tig'izlashgan vaqt talablaridan kelib chiqib, zamon hamda zamondosh ehtiyojlarini qondiruvchi yangi shakllar va modern ifoda yo'sinlarini izlashga bo'lgan intilishlari;
 - 8) insoniy tabiati va talantida shoirlik, nosirlik, dramaturglik, tarixnavislik, essenavislik, tadqiqotchilik singari bir-birini to'ldiruvchi turfa ijod turlari baravar mavqeda turishi;
 - 9) har bir asarida mavzu va muammo, qahramon hamda kompozitsiya, syujet qurilishi va voqealar tizimi, bayon qilish usuli, romanning umumiy ruhi, ohangi singari ko'plab jihatlarida o'zo'zini takrorlamaslikka intilishi, ya'ni ijod mas'uliyatini teran his qilishi;
 - 10) istiqlool davri bergan erkinlik va erkin fikr ifodasi uchun ochilgan keng imkoniyatlardan ijodiy bahramandlik.

References:

1. E.A'zam "Guli-guli" qissalar, kinoqissalar, dramatik asar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 230 b.
2. Fayzullayeva, O. (2024). THE ISSUE OF FORM AND CONTENT IN LYRIC CYCLES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 55-60.
3. Fayzullayeva, O. X. (2020). DIVERSITY IN WRITING UZBEK SONNETS. *Theoretical & Applied Science*, (4), 627-633.



4. Kholbekovna, F. O. (2021). The Issue of Artistic Idea in Poetry. *European Scholar Journal*, 2(4), 233-236.
5. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 332-340.
6. Kholbekovna, F. O., & Oglu, E. B. J. (2021). Development and Improvement of Cyclicity. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 12049-12054.
7. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(9), 246-252.
8. Mamatkulov, M., & Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
9. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER'S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 70.
10. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(3), 49-53.
11. Yerjanova, S., & Turayeva, D. (2023). CREATIVE LABORATORY AND ARTISTIC INTERPRETATION ISSUE. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 832-841.
12. Saymuratova, I., To'rayeva, D., & Saidova, S. (2023). BADIY ASARDA TAVSIFLASH VOSITALARI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(6 Part 3), 19-24.
13. Nematullaevna, T. D. (2022). THE WRITER'S WORLD VIEW AND ARTISTIC IDEA. *Open Access Repository*, 9(12), 163-174.
14. To'rayeva, D., Saymuratova, I., & Abulqosimov, A. (2023). BADIY ASARDA OBRAZLILIK MASALASI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(6 Part 3), 14-18.
15. Torayeva, D. (2024). THE WRITER'S CREATIVE LABORATORY AND THE PROBLEM OF AESTHETIC INTERPRETATION. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 66-70.
16. Jurakulov, S. (2024). EXPRESSION OF MYSTICAL IMAGES IN UZBEK STORYWORKING. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 40-44.
17. Gulchehra, K., Ijobat, S., & Sardor, J. Interpretation of man and universe in historical epics.
18. Rahmanov, V., Ermatova, S., Boyzaqova, S., Firmatov, M., & Yusupov, N. (2023). ELEKTROMAGNIT TEBRANISHLAR VA TO 'LQINLAR" MAVZUSINI O 'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 5-14.
19. Rahmanov, V., Yalg'ashova, G., Yusupova, S., & To'laganov, A. (2023). OLIY TA'LIMDA TALABALARGA STATIONAR VA NOSTATIONAR DIFFUZIYALAR MAVZUSINI O 'TISHDA ULARNI EVRISTIK O 'QITISH TEXNOLOGIYASINI SHAKILLANTIRISH. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5), 156-159.
20. Allayorov, A. I., Islikov, S. H., & Turdikulova, B. T. (2021). XXI CENTURY-THE CENTURY OF INTELLECTUAL YOUTH. *Экономика и социум*, (2-1 (81)), 56-62.